

## SANOAT KORXONALARIDA XARAJATLARNI SAMARILI BOSHQARISH ORQALI XOM-ASHYO RESURSLAR SARFINI OPTIMALLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**Ochilov Akram Odilovich**

Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi professori, i.f.d.

ORCID ID: 0009-0004-9254-188X

E-mail: [akram.oo@mail.ru](mailto:akram.oo@mail.ru)

**Xazratov Sarvar Ibragimovich**

Qarshi davlat texnika universiteti,  
mustaqil izlanuvchi.

E-mail: [sarvar-hazratov@mail.ru](mailto:sarvar-hazratov@mail.ru)

### Аннотация

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida xarajatlarni samarali boshqarish iqtisodiy o‘shishning asosiy dastagi sifatida ochib berilgan. Dunyo mamlakatlarida so‘ngi un yillikda qayta tiklanmaydigan resurslarning kamayishiga davlatlar tomonidan ularga bo‘lgan ehtiyojni qondirish uchun ko‘plab konlar o‘zlashtirilishi, o‘rmonlar kesilishi, mineral xom-ashyolar cheksiz ravishda qazib olinishi sabab bo‘lmoqda. Natijada esa mamlakatlarda resurslarga bo‘lgan talab oshib, ularni qazib olish va qayta ishlash tannarxini oshirib oshishiga olib kelmoqda. Resurslarni kamayishi korxonalar oldida ulardan samarali foydalanish orqali xarajatlarni nazorat qilish va mukammal boshqarish vazifasini yuklatilishi bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xom-ashyolar resurs, samaradorlik, resurs tejamkorligi, sanoat korxonalari, tannarx, samarali boshqarish, ichki imkoniyatlar, asosiy ishlab chiqarish quvvatlari, modernizatsiyalash.

### Аннотация

В статье рассматривается эффективное управление затратами на промышленных предприятиях как основа экономического роста. Сокращение невозобновляемых ресурсов в странах мира в последнее десятилетие обусловлено разработкой многочисленных шахт, вырубкой лесов, а также неограниченной добычей минерального сырья с целью удовлетворения своих потребностей. В результате спрос на ресурсы в странах увеличивается, что приводит к повышению затрат на их добычу и переработку. Даны предложения и выводы по задаче контроля затрат и эффективного управления ресурсами на предприятиях.

**Ключевые слова:** сырьевые ресурсы, эффективность, ресурсосбережение, промышленные предприятия, себестоимость, эффективное управление, внутренние возможности, основные производственные мощности, модернизация.

## Abstract

This article reveals the effective management of costs in industrial enterprises as the main pillar of economic growth. The reduction of non-renewable resources in the countries of the world in the last decade is caused by the development of many mines, deforestation, and unlimited mining of mineral raw materials in order to satisfy their needs. As a result, demand for resources in countries is increasing, leading to higher costs of extracting and processing them. Proposals and conclusions are given on the task of cost control and excellent management by efficient use of resources in front of enterprises.

**Keywords:** raw materials resource, efficiency, resource saving, industrial enterprises, cost, efficient management, internal capabilities, main production capacities, modernization.

## KIRISH

Jahonda resurslarga boʻlgan talab kun sayin ortib borishi mamlakatlarni oʻz iqtisodiy taraqqiyoti uchun keskin qarorlar qabul qilishiga majbur qilmoqda. Bozorda raqobatni kuchayishi, arzon va sifatsiz mahsulotlarni egallashi kompaniyalarni xomashyo resurslarni samarali foydalangan holda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, ularni boshqarish boʻyicha choralar ishlab chiqishga va amaliyotga tatbiq etishga undamoqda. Mamlakatda yalpi milliy mahsulotni oʻsishiga nafaqat mahsulotlarning narxini oshishi balki mahsulot ishlab chiqarish fizik miqdorining oshishi, yangi zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarni joriy qilish omillari ham taʼsir etadi. Kompaniyalar ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohalarida soat sayin yangilanib borayotgan ilmiy ishlanmalar va tadqiqotlardan foydalangan holda mahsulotlar va xizmatlarning yangi turlarini yaratilmoqda, eskilari yangilanmoqda. Bu orqali kompaniyalar kam xarajat sarflab, yuqori iqtisodiy nafga ega boʻlishga va bozorda ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashishga erishadilar. Rivojlangan kompaniyalarning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida birinchi navbatda ilgʻor, innovatsion va ilmiy-pedagogik texnologiyalarni amaliyotda joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan doimiy tijoriy hamkorlik qilish boʻlsa ikkinchi navbatda xarajatlarni boshqarish, resurslar tejamkorligiga erishish maqsad qilgan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, xarajatlarning optimallashtirish eng katta manbalardan biri bu resurslarni tejash hisoblandi. Mamlakatimizda xam soʻngi yillar xarajatlarni qisqartirish, resurslarni tejash boʻyicha bir qancha hukumat qarorlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli «Oʻzbekiston-2030» strategiyasi toʻgʻrisida”gi [1] farmonida 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik koʻrsatkichlari yoʻnalishlarida barqaror iqtisodiy oʻsish orqali aholi farovonligini taʼminlash uchun bir qancha choralar belgilangan. Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilgʻor texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish orqali sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, yirik korxonalar tomonidan import oʻrnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat

kooperatsiyasini yoʻlga qoʻygan korxonalarni faol ragʻbatlantirish tizimini joriy qilish. Korxonalar tomonidan xarajatlarni har chorakda qayta tahlil qilish (spending review) orqali kelgusi davrdagi har bir yoʻnalish ustuvorligidan kelib chiqib, byudjetni toʻliq «noldan» qayta koʻrib chiqish (zero-based budgeting) amaliyotini yoʻlga qoʻyish, resurslardan foydalanishda suiisteʼmolchilikka yoʻl qoʻymaslik uchun ichki nazorat va komplayens tizimini kuchaytirish, moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini taʼminlash, tejamkor ishlab chiqarish va meʼyorlash tamoyillarini joriy etish, mehnat va resurslar sarfi boʻyicha ilgʻor meʼyorlarni amaliyotga tatbiq qilish orqali chiqimlarni kamaytirish va boshqa koʻplab choralar belgilandi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Xarajatlarni qisqartirishning dastlabki mulohazalari klassik iqtisodiyot tadqiqotchilari A.Smit, D.Rikardolarning [2] asarlarida uchraydi. A.Smitning asarlarida iqtisodiyotning asosiy manbasi tejamkorlikka qaratilgan. Samarasiz sarf-xarajatlar aynan daromad keltirmaydigan va ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlmagan xarajatlarni amalga oshirishni tanqid qilgan. Kapitalni meʼyordan ortiqcha sarflash, daromad olish imkoni kam boʻlgan sohalarga mablagʻ ajratishni taqiqlagan. Bozor qonunlari asosida talab, taklif, mahsulotlar qiymati va raqobatni isbotlab beradi. Bunda raqobat iqtisodiyotda asosiy rol oʻynaydi va u ishlab chiqaruvchilarni resurslardan samarali foydalanishga va xaridorlar ehtiyoji bilan hisoblashishga majbur etadi deb fikr bildirgan. D.Rekorda esa mamlakatlar shunday mahsulotlar ishlab chiqarishlar sohasi bilan shugʻullanish kerakki, ular uchun alternativ zaxiralar mavjud boʻlishi kerak. Djon Shraybfeder [3] esa resurslarni boshqarish uchun faqat dasturiy taʼminot yoki texnik jihozlar va zaruriy bilimlar balki korporativ siyosat ham talab qilinadi. Resurslarni samarali boshqarish orqali rentabellikni oshirishni rejalashtirgan har qanday korxonalar uchun xaridorlar koʻpaytirish ularga qoʻshimcha imkoniyatlarni ham ochib beradi deb taʼkidlagan.

MDX mamlakatlar olimlari ham bu sohada tadqiqot olib borgan. T.N. Sıso [4] oʻz qarashlarida har bir korxonada oldida oʻz sarmoyadorlar uchun yuqori foyda olib kelish vazifasi qoʻyiladi, buning uchun sotishni oshirish yoki xarajatlarni qisqartirish kerak deb baholaydi. Xarajatlarni optimallashtirishsiz kompaniya raqobatlasha olmaydi va tez oʻzgaruvchan muhitga dosh berolmaydi. Optimallashtirishning ajralmas elementi korxonaning barcha resurslari samaradorligini baholashda, ishlab chiqarish potensialini aniqlashda, rejalarni tayyorlash va xarajatlarni maqbullashtirish sohasida oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun maʼlumot toʻplashga yordam beradigan chora-tadbirlar ishlab chiqishdir. R.V.Kamanina [5] oʻz izlanishlarida uzliksiz texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishning hal qiluvchi omilidir. Yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlari kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, texnologik takomillashtirish, uzluksiz xom-ashyo oqimini joriy etish harakati tannarxni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Oʻzbekiston olimlari ham bu sohada koʻplab tadqiqotlar olib borgan. B.R.Xamdorov [6] fikricha hozirgi kunda xom-ashyo sarfini hisoblash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki xom-ashyo sarfini meʼyorlash, barqaror ishlab chiqarish jarayonini yaratish, ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini

kamaytirishiga yordam beradi. Boshqa tomondan, qayta tiklanmaydigan manbalar ko‘pincha oldindan qimmatroq bo‘ladi, lekin odatda qayta ishlash osonroq va kamroq energiya talab qiladi. Xom ashyo narxidan tashqari, korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarining uzoq muddatli barqarorligini ham hisobga olishlari kerak. Barqaror ishlab chiqarish xom ashyolardan foydalanishning atrof-muhitga ta‘sirini diqqat bilan ko‘rib chiqishni, shuningdek, iloji boricha qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishni talab qiladi. Sh.Sh.Shodmonov va U.V.G‘ofurovlarning [7] tadqiqotida tejamkorlik kategoriyasi insoniyat oldida xavf-xatar, to‘siq va barcha resurslardan samarali foydalanish muammolarini keskin holda kamayganligi sababli o‘z vaqtida tan olinmay kelindi. Bugungi kunda esa bozor iqtisodiyot sharoitida bu tushuncha dolzarb bo‘lib, unga amal qilishning har qanday buzilishi oqibatida darhol hammasini yuzaga chiqarmoqda.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi. Mazkur usullardan foydalanish tizimda mavjud muammolarni aniqlash hamda uning imkoniyatlari va kamchiliklarini, shu bilan bir qatorda, sanoat korxonalarida resurs tejamkorligini oshirishda unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash imkoniyatini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarda xarajatlarni qisqartirishda agarda ishlab chiqarish hajmiga yoki sifatidagi salbiy ta‘sir ko‘rsatmasa, shunda xarajatlarni qisqartirish bilan bog‘liq choralar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi, xarajatlarni boshqarish strategiyasi korxonada istiqbol uchun uzoq vaqt barqarorlik olib kelish imkoniyatini yuzaga keltirib chiqaradi. Xarajatlarni maqsadli amalga oshirishda quyidagi choralar ko‘rish zarur hisoblanadi.

-Xarajatlarni smeta bilan solishtirish hamda oshish sabablarini o‘rganish. Agar oshish sabablari bevosita xarid qilinayotgan xom-ashyo resurslar bilan bog‘liq bo‘lsa unda ulardan samarali foydalanish usullarini izlab topish kerak;

-Boshqaruv hisobini to‘g‘ri yo‘lga quyish, bunda quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi.

- Xarajatlarni boshqarish;
- Tannarxni hisoblash;
- Byudjetni rejalashtirish;
- Me‘yorlarni aniqlash va farqlarni tahlil qilish;
- Boshqaruvchilarni hamda tarmoqlar faoliyati samaradorligini baholash.

Xarajatlarni qisqartirish dasturi texnik, moliyaviy, psixologik muammolarga duch kelish ehtimoli mavjud. Texnik muammo asosan yangi texnologiyalar va uskunalarni joriy qilish, biznes va ishlab chiqarishni o‘zgartirish. Moliyaviy muammolar bilan bog‘liq kompaniyalar odatda moliyaviy resurslarni kam bo‘lganda xarajatlarni kamaytirish choralar bilan ko‘radi va katta xarajatlar uchun tavakkal qilish imkoni yo‘q. Psixologiya omillari esa xarajatlarni qisqartirish uchun

xodimlarni qisqartirish ularga psixologik ta'sir qiladi va ularning noroziligini va g'azabini keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdagi xarajatlarni qisqartirish ber necha faktorlarga bog'liq. Xarajatlar samaradorligini oshirish yo'llari 1-rasmda keltirildi.

1-jadval.

### Xarajatlar samaradorligini oshirish yo'llari<sup>1</sup>

Xarajatlar samaradorligini oshirish modellari	Modelning afzal taraflari	Modelning kamchiliklari	Natija va xulosa
Xarajatlarni haqiqatda kamaytirish	Xarajatlarni haqiqatdan qisqartirish va tejamkorlikka erishish orqali rentabellikni oshirish mumkin	Kompaniya oldingi xarajatlarni jiddiy tahlil qilish talablarini quyadi. Bunda: -mehnat sohasida xodimlar norozichiligi keltirib chiqaradi. -mehnat va xom-ashyo resurslarni hisob-kitobsiz kamaytirish ishlab chiqarishdan sifat ko'rsatgichigacha ta'sir qiladi	Xarajatlarni samarali boshqarish usullaridan foydalanish mumkin
Xarajatlarni intensivlashtirish	Yangi texnologiyalarni o'rnatish yoki mavjudlarini modernizatsiya qilish	Faqat yangi xaridlar bozori bo'lgandagina samarali bo'ladi. Investitsiya uchun qilinadigan xarajatlarni kelajakda qoplash riski baland bo'ladi	Iqtisodiy o'sishga olib keladi.
Xarajatlarni "fiksatsiya qilish"	Doimiy xarajatlarni fiksatsiya qilish orqali daromadlarni oshirish va xarajatlarni qisqartirish orqali ishlab chiqarishni oshirish.	Narxlar o'zgartirish doim ham samara bermaydi. Agar ishlab chiqarish oshsa, xarajatlarni nazorat qilib bo'lmaydi.	Fiksatsiya qilish jarayonini bir tekisda ushlab turish murakkab hisoblandi.
Xom-ashyodan samarali foydalanish	Chiqindi ko'payish ehtimoli juda kam bo'ladi. Yuqori qiymatga ega bo'lgan mahsulot yaratish imkoni bo'ladi.	xarajatlarni qisqartirish mahsulot sifati va miqdoriga ta'sir qiladi.	Xom-ashyodan samarali foydalanish uchun eng ilg'or texnologiyalardan foydalanib borish kerak.

Chiqindilarni qayta ishlash ham xarajatlarni qisqartirishning asosiy manbalaridan biri hisoblandi. Mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini o'rnatish ishlari so'ngi yillarda jadallashdi. Sanoat chiqindilarini utilizatsiya qilish samaradorligini aniqlash, chiqindilardan foydalanishdan keladigan iqtisodiy naf doimiy tahlil qilib borilishi kerak. Chiqindilarni utilizatsiya qilishning iqtisodiy va samarali strategiyalari hamda texnologiyalarini tanlash, ishlab chiqarish obyektlari, ustaxonalar va chiqindilarni qayta ishlash sexlarini quvvatini oshirish talab etiladi.

Chiqindilarini qayta ishlash samaradorligi hisoblab chiqishda ayrim iqtisodiy hisob-kitoblarga tayanadi. Mutlaq iqtisodiy samaradorlik **MI**, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlashga asoslangan xom-ashyodan kompleks foydalanish chiqindilardan foydalanishdan barcha ta'sirlar yig'indisining nisbati bo'ladi.

Matematik jihatdan bu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

<sup>1</sup> Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan.

$$MI_s = \frac{MMs}{\sum_{j=1}^n S_j}$$

$MMs$  -xom ashyoni kompleks qayta ishlash chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali umumiy iqtisodiy ta'siri

$S$  -jami chegirmali xarajatlar, qayta ishlash va chiqindilarni muayyan turdagi mahsulotga qayta ishlash xarajatlar yig'indisi.

$$MMs = \frac{\Delta O'}{\sum_{j=1}^m K}$$

$\Delta O'$ -ishlab chiqarish chiqindilarini to'plash va ma'lum turdagi mahsulotni qayta ishlash hisobiga korxonada foydasining oshishi;

$K$ -chiqindilarni yig'ish va ma'lum bir mahsulotning turini ishlab chiqarish uchun kapital qo'yilmalar summasi.

Tadqiqotdan ko'rinib turibdiki, mutlaq iqtisodiy samaradorlik bevosita xom-ashyo va boshqa xarajatlarning uzviy aylanishiga bog'liq. Muayyan korxonada ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanishning iqtisodiy ta'siri barcha chiqindilarni sotish va qayta ishlashning yillik hajmiga asoslanib, xom ashyo, chiqindilar va chiqindilardan tayyorlangan mahsulotlarni sotish orqali erishiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarni resurs tejamkorligi asosida iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bevosita xarajatlarni qisqarishiga olib keladi. Xom-ashyodan kompleks foydalanishning sabablari va natijalari asosan xom-ashyoni qayta ishlovchi alohida korxonalar yoki hatto alohida sanoat tarmoqlarda kelajakda chiqindilarni qayta ishlash, yashil energiyadan foydalanishni kengaytirish eng dolzarb masaladir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

<https://lex.uz/docs/6600413>

2. Смит А. «Исследование о природе и причинах богатства народов». Изд. Социально – экономической литературы. Москва -1962. Стр.442;

Рикардо Д. «Сочинения. Начала политической экономии и налогообложения». Гос.изд. политической литературы

3. Джон Шрайбфедер. «Эффективное управление запасами» /; Пер. с англ. 2-э изд. — М.: Алпина Бизнес Букс, 2006.

4. Т.Н. Сысо «Оптимизация управления затратами предприятия», Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2011. № 4.

5. Каманина Р.В. «Себестоимость продукции: условия и факторы снижения» || Бюллетен науки и практики, №7(июль)2016г.

6. B.Xamdamov. “Xom ashyo sarfi hisobini ishlab chiqish usullari”, || Mexanika va Texnologiya ilmiy jurnali 5-jild, 2-son, 2024 Maxsus son,

7.Sh.Shodmonov, U.G‘ofurov va boshqalar. “Iqtisodiyotda tejamkorlik va mutanosiblikni ta’minlashning nazariy-uslubiy asoslari” darslik, Toshkent. “Adib nashiriyoti”. 2010 y.